



Dilrabo BOBOYAROVA,

Tayanch doktorant, Navoiy davlat universiteti, Navoiy, O‘zbekiston

E-mail: boboyarodavilya97@gmail.com, ORCID: 0009-0006-7659-2972

A.Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti, PhD M.Madaminova taqrizi asosida

THE SEMANTIC FIELD OF HAND MOVEMENT VERBS IN ENGLISH AND UZBEK: A CORPUS-BASED AND COGNITIVE APPROACH

Annotation

This article presents a comparative analysis of the semantic field of hand movement verbs in English and Uzbek using corpus-based and cognitive approaches. English has 5 core clusters (manipulation, locomotion, tactile contact, gesture, impact), while Uzbek has 6 (adding a “take-give” cluster). Typological similarities (agency, force, resultativity) and differences are identified: English predominantly uses phrasal verbs, whereas Uzbek relies on affixal derivation.

Key words: semantic field, hand movement verbs, corpus linguistics, cognitive semantics, phrasal verbs, typology.

СЕМАНТИЧЕСКОЕ ПОЛЕ ГЛАГОЛОВ РУЧНОГО ДЕЙСТВИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: КОРПУСНЫЙ И КОГНИТИВНЫЙ ПОДХОД

Аннотация

В статье сопоставляются семантические поля глаголов ручного действия в английском и узбекском языках на основе корпусного и когнитивного подходов. В английском языке выделено 5 ядерных кластеров (манипуляция, перемещение, тактильный контакт, жест, удар), в узбекском – 6 (добавляется кластер «передача»). Выявлены типологические сходства (агентивность, сила, результативность) и различия: в английском преобладают фразовые глаголы, в узбекском – аффиксальная деривация.

Ключевые слова: семантическое поле, глаголы ручного действия, корпусная лингвистика, когнитивная семантика, фразовые глаголы, типология.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI QO‘L HARAKATI FE‘LLARINING SEMANTIK MAYDONI: KORPUS VA KOGNITIV YONDASHUV

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi qo‘l harakati fe‘llarining semantik maydoni korpus va kognitiv yondashuv asosida qiyosiy tahlil qilingan. Ingliz tilida 5 ta (boshqarish, harakatlantirish, teginish, ishora, zarba), o‘zbek tilida esa 6 ta (qo‘shimcha olish-berish) yadro klasteri aniqlangan. Ikki til o‘rtasida agentlik, kuch va natijaviylik kabi universal o‘xshashliklar mavjud. Farqlar ingliz tilida frazali fe‘llar, o‘zbek tilida affiksial derivatsiyaning ustunligida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: semantik maydon, qo‘l harakati fe‘llari, korpus lingvistikasi, kognitiv semantika, frazali fe‘llar, tipologiya.

Kirish. Qo‘l harakati fe‘llari (QHF) insonning jismoniy va ijtimoiy faoliyatida, shuningdek, kognitiv jarayonlarni til orqali ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu fe‘llar aniq manipulyatsiya (ushlamoq, tortmoq, urmoq va boshqalar) dan tashqari, mavhum tushunchalarni, ya‘ni nazorat qilish, tushunish, boshlash, taslim bo‘lish kabi metaforik tarzda kodlash imkonini beradi. Shu sababli, turli tillarda QHFning semantik maydonini qiyosiy o‘rganish lingvistik tipologiya, kognitiv semantika va tarjimashunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi QHF semantik maydoni korpus lingvistikasi, kognitiv semantika va konstruktiv grammatika metodlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ikki tildagi semantik maydonlarning yadro-periferiya tuzilmasini aniqlash, universal, ya‘ni tipologik o‘xshashlik va tillarga xos farqli xususiyatlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotda quyidagi savollarga javob izlanadi:

Ingliz va o‘zbek tillarida QHF semantik maydoni nechta yadro klasteridan iborat?

Yadro va periferiya o‘rtasidagi chegara qanday mezonlar asosida belgilanadi?

Ikki til o‘rtasida qanday tipologik o‘xshashlik va farqlar mavjud?

Semantik maydon modellari tarjima va leksikografiya uchun qanday amaliy ahamiyatga ega?

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Semantik maydon nazariyasi bo‘yicha J.Trier [1] va F.Kluge [2] lar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar til leksikasini yadro-periferiya tuzilmasi sifatida modellashtirishga asoslangan. B.Levin [3] ingliz tilidagi harakat fe‘llarini semantik-sintaktik xususiyatlariga ko‘ra tasniflab, qo‘l harakati fe‘llarini alohida guruhlariga ajratgan. Ch.Fillmor va B.Atkins [4] freym semantikasi doirasida manipulation, contact by impact, body movement kabi freymlarni ishlab chiqqan.

XX asrning ikkinchi yarmida A.Lehrer [5] paradigmatic munosabatlarga asoslangan mantiqiy-formallashtirish modelni taklif etgan. 1980-yillardan boshlab freym semantikasi va prototip nazariyasi (D.Cruse [6]; D.Geeraerts [7]) maydon tahliliga eksperimental va kognitiv o‘lchamlarni kiritgan. A.Stefanowitsch va S.Gries [8] kollostruktur tahlil orqali so‘z-konstruktsiya bog‘liqligini maydon ichidagi “konstruktsion quyi-maydon” sifatida ko‘rsatgan.

O‘zbek tilshunosligida semantik maydon nazariyasi Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, H.Ne‘matov, R.Rasulov, Sh.Safarov, Sh.Iskandarova kabi olimlar tomonidan rivojlantirilgan. Xususan, S.Muhamedova [9] harakat fe‘llarining semantik tasnifini, B.Mengliyev va boshqalar esa fe‘l semantikasining kognitiv aspektlarini tadqiq qilgan. Xususan, qo‘l harakati fe‘llarining semantik maydoni ingliz

tili bilan qiyosiy jihatdan mustaqil tadqiqot darajasida o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot quyidagi metod va materiallarga tayangan holda amalga oshirildi:

1. Ingliz va o'zbek tillari uchun korpus materiallari: Ingliz tili uchun COCA (Corpus of Contemporary American English) va BNC (British National Corpus) asosida chastotasi yuqori bo'lgan 50 ta, ya'ni hold, push, pull, hit, press, touch, wave, knock, drag, rub, shake, grab, throw, catch, tap, slap, punch, stroke, squeeze, poke, pinch, pat, point, wipe, slide, flick, snap, grip, grasp, scratch, swipe, clap, smack, tug, lift, shove, twist, yank, thrust, wrench, thump, pound, scoop, scrape, crumple, cradle, cup, dab, brush, beckon QHF lari tanlab olingan bo'lsa, o'zbek tili uchun – O'zbek milliy korpusi, izohli lug'atlar va badiiy-matbuot matnlari asosida 60 dan ortiq QHF tahlil qilingan.

1-jadval. Ingliz tilidagi QHFning 5 ta yadro klasteri.

Klaster	Semantik maydon	Tipik fe'llar	Semantik komponentlar
1	Boshqarish (manipulation)	hold, grasp, grip	Agent + kontakt + nazorat + (statik)
2	Harakatlantirish (locomotion-inducing)	push, pull, drag	Agent + kuch + trayektoriya + natija
3	Teginish (tactile contact)	touch, pat, stroke	Agent + yengil kontakt + (takroriylik)
4	Ishora (gesture/deixis)	point, wave, beckon	Agent + kommunikativ funksiya + vizual yo'nalish
5	Zarba (impact/strike)	hit, slap, punch	Agent + yuqori kuch + to'satdanlik + natija

O'zbek tili uchun o'tkazilgan tahlilda D.Boboyarova [10] tomonidan 6 ta yadro klasteri ajratilgan edi (2-jadval):

2-jadval. O'zbek tilidagi QHFning 6 ta yadro klasteri.

Klaster	Semantik maydon	Tipik fe'llar	Semantik komponentlar
1	Tutish-ushlash	tutmoq, ushlamoq, changallamoq	Ingliz tilidagi 1-klasterga mos
2	Harakatga keltirish	tortmoq, itarmoq, surmoq, ko'tarmoq	Ingliz 2-klasteriga mos
3	Teginish	tegmoq, silamoq, qoqmoq	Ingliz 3-klasteriga mos
4	Ishoraviy harakat	ko'rsatmoq, qo'l silkitmoq, imlamoq	Ingliz 4-klasteriga mos
5	Zarba	urmoq, tushirmoq, mushlamoq	Ingliz 5-klasteriga mos
6	Olish-berish	olmoq, bermoq, uzatmoq	O'zbek tiliga xos qo'shimcha klaster

Bundagi asosiy farq – O'zbek tilida olmoq/bermoq kabi transfer (o'tkazish) fe'llari alohida klaster sifatida ajralgan bo'lsa, ingliz tilida bu ma'nolar ko'pincha take/give kabi boshqa guruhlariga tarqalgan yoki frazali fe'llar orqali ifodalanadi.

Semantik maydonning yadro-periferiya tuzilmasi korpus chastotasi, kollokatsion tortishish va prototipik ko'rsatkichlar asosida har bir klaster ichida yadro va periferiya ajratildi. Masalan, tutish klasterida:

Yadro: hold, catch (ingliz tilida); tutmoq, ushlamoq (o'zbek tilida) – yuqori chastota, keng kollokatsion imkoniyat, stilistik neytrallikni ifodalaydi;

2. Tahlil usullari: (1) Komponent tahlil – fe'llarning semema va semalarini ajratish uchun; (2) Kollostruktur tahlil – so'z va konstruktsiya o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun; (3) Kognitiv-freym tahlili – metaforik kengayish va konseptual modellarni ochib berish uchun va (4) Qiyosiy-tipologik metod – ikki til o'rtasidagi universal va tillarga xos xususiyatlarni farqlash uchun.

3. Semantik maydon modeli: Yadro-periferiya tuzilmasi paradigmatic (sinonimiya, antonimiya, giperonim-giponim) va sintagmatik (kollokatsiya, frazeologizm) komponentlar asosida qurilgan.

Tahlil va natijalar. B.Levin [3] hamda Ch.Fillmore va B.Atkins [4] tadqiqotlari tahlili natijasida ingliz tilidagi 50 ta yuqori chastotali QHF ning 5 ta asosiy yadro klasteri aniqlandi (1-jadval):

Periferiya: grip, grasp (ingliz tilida); changallamoq, mahkam siqmoq (o'zbek tilida) – pastroq chastota, intensivlik yoki emotsional semalar bilan boyitilgan.

Yadro fe'llari yuqori chastotaga, keng kollokatsion imkoniyatga, stilistik neytrallikka, ko'p ma'nolilikka va faol metaforik kengayishga ega. Periferiya fe'llari esa bu ko'rsatkichlarning bir yoki bir nechtasida cheklangan bo'lib, ular ko'pincha intensivlik, emotsionallik, dialektal yoki terminologik xususiyat kasb etadi. Quyidagi 3-jadvalda qo'l harakati fe'llari semantik maydonida yadro (markaziy, eng faol qo'llanuvchi fe'llar) va periferiya (chekka, kam qo'llanuvchi yoki maxsus ma'noli fe'llar) o'rtasidagi farqlovchi beshta asosiy mezon ko'rsatilgan.

3-jadval. Yadro va periferiyani farqlovchi mezonlar.

Mezon	Yadro	Periferiya
Chastota	Yuqori (top 10-15)	Past (30-50+ o'rinlar)
Kollokatsion kenglik	Yuqori (ko'plab obyektlar bilan)	Cheklangan (maxsus kontekst)
Stilistik neytrallik	+	dialektal, emotsional, terminologik
Polisemiya darajasi	Yuqori (10+ ma'no)	O'rtacha yoki past
Metaforik kengayish	Faol	Cheklangan yoki ixtisoslashgan

Bunda tipologik o'xshashliklar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Ikkala tilda ham QHF agentivlik, kontakt, kuch, trayektoriya va natijaviylik kabi universal semantik komponentlarga asoslangan;

Kognitiv metafora ikkala tilda ham mavjud: tushunish = ushlash (grasp an idea / g'oyani ushlamoq), nazorat = qo'lda tutish (hold power / hokimiyatni tutmoq);

Ishoraviy harakatlar (point/ko'rsatmoq, wave/qo'l silkitmoq) ikkala tilda kommunikativ funksiyani bajaradi.

4-jadval. Ingliz va o'zbek tillari QHFning tipologik farqlari.

Xususiyat	Ingliz tili	O'zbek tili
Yo'nalish kodlashi	Frazali fe'llar (push through, pull off) + predloglar	Affixal qo'shimchalar (-ib, -ib chiq-, -ib yubor-) va analitik konstruktsiyalar
Kuch darajasi	Leksik seleksiya (tap < slap < punch)	Morfologik modifikatorlar (ezib yubormoq, siltab yubormoq)
Metaforik kengayish	Yuqori darajada leksik birlik ichida kodlangan	Ko'pincha perifrastik iboralar (g'oyani anglamoq) yoki qo'shma fe'llar
Fonosemantika	Onomatopoeik klasterlar keng (slap,	Cheklangan, ko'proq affixal gradatsiya

	smack, tap, flick)	
Transfer (olish-berish)	Frazali fe'llar va alohida leksemalar (take, give, pass)	Alohida semantik klaster sifatida (olmoq, bermoq, uzatmoq)

Yuqorida ikki tilning semantik maydonlari va tipologik farqlari umumiy tarzda tahlil qilindi. Endi bu farq va o'xshashliklarni aniq bir fe'l misolida – ingliz tilidagi hold va o'zbek tilidagi ushlamoq – batafsil ko'rib chiqamiz. Ushbu juftlik ikkala tilda ham yadro fe'llari hisoblanadi va semantik

kengayish jarayonlarini kuzatish uchun namuna bo'la oladi. Quyidagi 5-jadvalda hold va ushlamoq fe'llarining literal (to'g'ri), metaforik-kognitiv, metaforik-ijtimoiy va frazali/analitik qo'llanishlari qiyosiy tarzda aks ettirilgan.

5-jadval. Hold va ushlamoq fe'llarining semantik kengayishining qiyosiy tahlili.

Ma'no turi	Ingliz tilida (hold)	O'zbek tilida (ushlamoq)
Literal (to'g'ri)	hold a book	kitobni ushlamoq
Metaforik (kognitiv)	hold a belief, hold an opinion	(ko'pincha tutmoq yoki perifrastik)
Metaforik (ijtimoiy)	hold power, hold office	hokimiyatni tutmoq, lavozimni egallamoq
Frazali/analitik	hold on, hold up, hold back	-ib turmoq, ushlab qolmoq, ushlab turmoq

Xulosa va takliflar. Ingliz tilidagi QHF semantik maydoni 5 ta yadro klasteri (boshqarish, harakatlantirish, teginish, ishora, zarba) dan iborat bo'lsa, o'zbek tilida 6 ta yadro klasteri (qo'shimcha ravishda olish-berish klasteri) mavjud. Bu farq o'zbek tilida transfer harakatlarining semantik jihatdan mustaqil mikromaydon sifatida ajralib chiqqanligini ko'rsatadi. Yadro va periferiya o'rtasidagi chegara chastota, kollokatsion kenglik, stilistik neytrallik va polisemiya darajasi kabi mezonlar asosida aniqlanadi. Ikkala tilda ham chastotasi eng yuqori fe'llar (ingliz tilida: hold, push, hit; o'zbek tilida: tutmoq, urmoq, olmoq) semantik maydonning yadrosini tashkil qiladi. Tipologik o'xshashliklar esa agentivlik, kontakt, kuch, trayektoriya va natijaviylik kabi universal semantik komponentlarda, shuningdek, tushunish = ushlash kabi kognitiv metaforalarda namoyon bo'ladi.

Asosiy tipologik farqlar quyidagilardan iborat:

Ingliz tilida frazali fe'llar va predloglar yo'nalish va natijani sintaktik darajada kodlaydi;

O'zbek tilida affiks qo'shimchalar (-ib, -ib chiq-, -ib yubor-) hamda analitik konstruksiyalar shu vazifani bajaradi;

Ingliz tilida kuch darajasi leksik seleksiya (tap < slap < punch) orqali, o'zbek tilida esa morfologik modifikatorlar (ezib yubormoq) orqali ifodalanadi;

Ingliz tilida fonosemantik klasterlar keng qo'llanilsa, o'zbek tilida bu hodisa cheklangan.

Nazariy jihatdan QHF ning semantik maydonini tahlil qilishda chastota, kollokatsiya, freym va konstruksion profilni bir vaqtning o'zida hisobga oluvchi ko'p o'lchamli modeldan foydalanish tavsiya etiladi. Bu model maydonni "raqamli xarita" sifatida ko'rish imkonini beradi. Shuningdek, ingliz tilidagi frazali fe'llarni o'zbek tiliga tarjima qilishda kuch darajasini saqlash uchun -ib yubormoq kabi affiks vositalardan foydalanish, metaforik kengayishlarda so'zma-so'z tarjimadan qochib, perifrastik ekvivalentlarni (grasp an idea → g'oyani anglamoq, g'oyani ilg'amoq) qo'llash va pull strings kabi idiomalar uchun nazoratni qo'lga olmoq kabi funksional ekvivalentlarni tanlash tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Trier J. Das Sprachliche Feld // Neue Jahrbücher für Wissenschaft und Jugendbildung. – 1934. – Bd. 10. – S. 428–449.
2. Klüge F. Semantic field theory revisited // Linguistics. – 2014. – Vol. 52, № 2. – P. 245–283.
3. Levin B. English verb classes and alternations: a preliminary investigation. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. – 348 p.
4. Fillmore Ch. J., Atkins B.T. Toward a frame-based lexicon: The semantics of risk and its neighbors // Frames, fields, and contrasts: New essays in semantic and lexical organization / ed. by A. Lehrer, E.F. Kittay. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1992. – P. 75–102.
5. Lehrer A. Semantic fields and lexical structure. –New York: North-Holland, 1974. – 225 p.
6. Cruse D. A. Lexical semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – 310 p.
7. Geeraerts D. Diachronic prototype semantics. – Oxford: Clarendon Press, 1997. – 250 p.
8. Stefanowitsch A., Gries S. T. Collocations: Investigating the interaction of words and constructions // International Journal of Corpus Linguistics. – 2003. – Vol. 8, № 2. – P. 209–243.
9. Muhamedova S.X. O'zbek tilidagi harakat fe'llarining semantik tasnifi. // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2004 № 1. – B 54–59.
10. Boboyarova D.F. O'zbek va ingliz tillarida qo'l harakati fe'llarining semantikasi // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, ISSN 2181-1709, №5 (2024), 164-166 b.